



Muhriddin SODIRJONOV,
Namangan davlat univeristeti professori v.b., PhD
E-mail: sodirjonov@mail.ru

NamDU siyosiy fanlar doktori DSc, professor N.Dexkanov taqrizi asosida

INSON KAPITALI RIVOJLANISH JARAYONLARI: XORIJ VA MAHALLIY Tajribalarning sotsiologik o'rganilishi

Аннотация

Maqola inson kapitali rivojlanish jarayonlarini sosiologik nuqtai nazardan tahlil qilishga bag'ishlangan. Uning asosiy maqsadi xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning tajribalari va nazariy yondashuvlari asosida inson kapitalini rivojlantirish mexanizmlarini o'rganishdan iborat. Maqolada inson kapitali nafaqat iqtisodiy resurs sifatida, balki ijtimoiy, madaniy va institutsional omillar bilan integratsiyalangan holda tahlil qilinadi. Maqola natijalari inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha davlat va nodavlat siyosatini shakllantirishda, shuningdek, ijtimoiy rivojlanish va barqarorlikni ta'minlashda ilmiy asos sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Inson kapitali, etnosotsiologiya, etnos, identiklik, mentalitet, demografiya, transformatsiya, innovatsiya, ta'lim, ijtimoiy ong, salohiyat.

ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В ПРОЦЕССАХ РАЗВИТИЯ: СОЦИОЛОГИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ЗАРУБЕЖНОГО И ОТЕЧЕСТВЕННОГО ОПЫТА

Аннотация

Статья посвящена социологическому анализу процессов развития человеческого капитала. Основная цель заключается в изучении механизмов развития человеческого капитала на основе опыта и теоретических подходов зарубежных и отечественных исследователей. В статье человеческий капитал рассматривается не только как экономический ресурс, но и в интеграции с социальными, культурными и институциональными факторами. Результаты исследования могут служить научной основой для формирования государственной и негосударственной политики в области развития человеческого капитала, а также для обеспечения социального развития и устойчивости.

Ключевые слова: Человеческий капитал, этносociология, этнос, идентичность, менталитет, демография, трансформация, инновация, образование, общественное сознание, потенциал.

HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT PROCESSES: A SOCIOLOGICAL STUDY OF FOREIGN AND LOCAL EXPERIENCES

Annotation

This article is devoted to the sociological analysis of human capital development processes. Its main objective is to explore the mechanisms of human capital development based on the experiences and theoretical approaches of both foreign and local researchers. The article examines human capital not only as an economic resource but also in integration with social, cultural, and institutional factors. The findings of the study can serve as a scientific basis for shaping state and non-state policies on human capital development, as well as for ensuring social progress and stability.

Key words: Human capital, ethnosociology, ethnos, identity, mentality, demography, transformation, innovation, education, social consciousness, potential.

Kirish. Dunyoda globallashuv jarayonlari kechayotgan bir davrda ham etnik va demografik vaziyatlar dolzarb masala sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. O'z navbatida, xalqaro miqyosda urbanizatsiya va migratsiya jarayonlarining kuchayishi natijasida xalqlarning assimilyasiyalashuvi, demografik marginallikning tezlashib ketishi tufayli inson omiliga bog'liq yangi muammolarni paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Bunday vaziyatda milliy va etnososial xususiyatlar asosida inson kapitalining mohiyati, uning rivojlanib borish tendensiyalari va turmush barqarorligi masalalarini o'rganish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Jahonning yetakchi ilg'or tadqiqot markazlari va universitetlarida "inson kapitali" muammosi etnososial va milliy identiklik xususiyatlarini inobatga olgan holda ilmiy izlanishlarning tadqiqot ob'ektiga aylanmoqda. Xalqaro miqyosda inson kapitalini takomillashtirishga doir mehnat bozorining samarali ishlash mexanizmlarini joriy qilish, demografik va etnik omillarning urbanizatsiya jarayonlariga ijtimoiy ta'siri, mintaqaviy yoki hududiy xususiyatlarga ko'ra

aholi zichligiga oid muammolar tahliliga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, Buyuk Britaniyaning Londondagi «Irqiy munosabatlar instituti» (Institute of Race Relations) etnik guruhlarining ijtimoiy va huquqiy tengligi masalalari bilan, ushbu mamlakatning Kardiff shahridagi «Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha ilmiy-tekshirish kengashi» (ESRC, Economic and Social Research Council) etnik va diniy munosabatlarda inson omili masalalarini, Rossiya Fanlar akademiyasi qoshidagi Etnologiya va antropologiya institutida «Ijtimoiy ongning etnik, fuqarolik va boshqa formalarini tadqiq etish» bo'yicha, hamda ushbu ilmiy tashkilot qoshidagi "Sosiologiya" institutida tashkil etilgan «Millatlararo munosabatlarni tadqiq etish markazi»da «O'zgaruvchan jamiyatda davlat, fuqarolik, etnik va diniy identiklikning muvozanati va o'zaro faoliyati» masalalari bilan shug'ullanadilar. "Insondagi mavjud tug'ma yoki hayot mobaynida egallangan barcha qobiliyatlarni ko'rib chiqing. Undagi qimmatli va tegishli sarmoyalar evaziga shakllangan barcha xususiyatlar inson kapitali hisoblanadi".[2.60] Ijtimoiy-

iqtisodiy hodisalarni tahlil qilish jarayonida funksional, ya'ni maqsadli yondashuv nuqtai-nazaridan inson kapitali – bu turmush sharoitini yaxshilashga jalb etilgan turli xil investisiyalar natijasida shakllangan va inson tajribasi orqali to'plangan, belgilangan tartiblar asosida foydalanilayotgan sog'liq, bilim, ko'nikma, qobiliyat, motivlarning ma'lum bir zahirasi bo'lganligi bois, zamonaviy jamiyat, xususan 2020 yildan boshlab insoniyatning asosiy muammosiga aylangan Jahon Pandemiya davrida ushbu jarayonni anglash ehtiyoji va bu fenomenga bo'lgan qiziqish ortdi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekistonning mustaqilligi yillarida etnososialogik tadqiqotlar doirasida “milliy o'zlik”, “etnik jarayonlar”, “etnik munosabatlar”, “etnik identiklik”, “milliy mentalitet” kabi ilmiy tushunchalarni o'rganish va tadqiq etishga bo'lgan ilmiy diapazon maydoni kengaydi. O'zaro ijtimoiy aloqalar o'zagini tashkil qiluvchi ushbu hodisalarning asosiy o'zagi bo'lgan “inson omili”, “inson kapitali”, “insoniy munosabatlar”ga bo'lgan ilmiy yondashuvlar yangicha mazmun kasb etdi. Milliy va etnomadaniy xususiyatlarning ijobiy transformatsiyalashuvi muayyan bir makonda istiqomat qilayotgan aholining turmush tarzidagi ehtiyojlarning sifat o'zgarishi bilan izohlanadi. Inson kapitaliga bo'lgan ehtiyoj davlat siyosati va jamiyat manfaatlari asosida barqaror rivojlanib, mukammallashib bormoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan «milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash»[1] ni rag'batlantirishga doir muhim vazifalar belgilandi. Bu esa o'z navbatida inson kapitalining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va uning etnososialogik xususiyatlari prognozini amalga oshirishda alohida dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni, 2019 yil 10 yanvardagi “Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5623-sonli Farmoni, 2016 yil 24 fevraldagi “Hududiy davlat boshqaruvi organlari tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida”gi PQ-2497-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 2 sentyabrda “Farg'ona viloyatining Marg'ilon, Qo'qon shaharlari va Rishton tumanida hunarmandchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi VM-687-sonli Qarori, shuningdek, sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Inson kapitali mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida XX asrning 60-yillaridan boshlab iste'molga kiritildi. Xalqaro Nobel mukofoti sohiblari T.Shuls[3] va G.Bekker[4.], amerikalik mutafakkir D.Bell[5] ning ilmiy asarlarida ushbu masalaga e'tibor qaratila boshlandi. Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy-siyosiy o'sishining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Inson farovonligi va rivojlanish indeksi (Human development index, IFRI) – bu bir yil davomida YAIMning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ulushi, aholining savodxonlik darajasi, uzoq umr ko'rish davomiyligini baholaydigan ko'rsatkichdir. U standart o'lchov sifatida turli hudud va mamlakatlar hayoti o'lchovi hisoblanadi. Uning natijalari ilmiy maqolalar va statistik to'plamlarda beriladi. Bu indeks o'lchov sifatida birinchi bor 1990 yil pokistonlik Mahbub ul-Hakim boshchiligidagi iqtisodchilar guruhi tomonidan taqdim etilgan. Keyinchalik IFRIning konseptual tuzilishi Amar Senning faoliyati tufayli rivojlantirildi[6].

Ijtimoiy kapitalni sosial fenomen sifatida E.Smit, J.Terner, T.Kun[7] lar esa inson omili masalalari bilan bog'lagan holda, B.Anderson va M.Fuko[8] lar etnomadaniy munosabatlarni insonlar madaniy hayoti va turmush tarzidagi sosial muammolar bilan uyg'unlikda, T.Lukman va P.Berger[9] lar esa yaxlit sosial organizm sifatida, M.Mid, E.Eriksen, R.Mills lar mentalitet doirasida, K.Levin, S.Shulman, P.Alterlar esa milliy-etnik jarayon tarzida tahlil etganlar. MDH mamlakatlarida inson kapitali mavzusining iqtisodiy-demografik jihatlarini Ye.Galayeva, A.Dobrynin, S.Dyatlov, I.Ilinskiy, Ye.Syerenova, R.Kapelyushnikovlar, sosiomadaniy tomonlarini S.Abashin, V.Achkasov, Yu.Granin, L.Russkix, K.Tuayeva, N.Antonova, N.Jukova, T.Stefanenko va boshqa olimlar o'z ilmiy tadqiqotlarida identiklikning jamiyatda o'zlikni anglash, ijtimoiy-madaniy tajriba, madaniy-tarixiy xotira va sosiomadaniy meros bilan bevosita aloqador masala ekanligini yoritganlar.

XX asr sosiologiyasining yorqin namoyondalari D.Tomson va X.Bekker «sosal shartnoma» ta'limotini, Xose Ortega-Gasset, K.Mangeym, P.Burdye, I.Gofman, I.Kon, T.Shanin, P.Nora kabi olimlar inson kapitalining sosial fenomen sifatida rivojlanib borishini etnososialogik yondashuvlar tizimida sosiomadaniy kontekstda o'rganish fikrini ilgari suradilar.

O'zbekistonda inson kapitali masalalari bilan milliy mentalitet doirasida etnososialogik jihatlarini M.Bekmurodov, R.A.Ubaydullayeva, O.Ata-Mirzayev, M.Ganiyeva, N.Aliqoriyev, T.Matibayevlar; ijtimoiy-madaniy omillarni A.Umarov, A.Xolbekov, O.Abduazimov, R.T.Ubaydullayevlar; qadriyatli munosabatlar tizimini Sh.Sodiqova, A.Seitov, S.Kalanova lar, katta va yosh avlod o'rtasidagi etnomadaniy jihatlariga oid xususiyatlarini Sh.Madayeva[10] ning tadqiqot ishlarida tahlil etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'kidlash lozimki, mavjud zamonaviy jamiyat o'ziga xos tizim va tuzilmalarga ega bo'lib, uning ijtimoiy xatti-harakatlari mazmuni, etnomadaniy shart-sharoitlari aholining tarkibiy qismi, joylashuvi, ekologik vaziyat, demografik-geografik omillar, hulk-atvor, madaniyat va axborot almashinuv xususiyatlari belgilab beradi. Bu borada Farg'ona vodiysida istiqomat qiladigan aholi kundalik hayoti, turmush tarzidagi xususiyatlarda inson kapitali masalalari etnososialogiya yo'nalishida atroflicha va tizimli tarzda tadqiq etilmagan. Xususan, shu paytgacha bo'lgan kompleks sosiologik tadqiqotlarda milliy va etnik munosabatlarda inson omilini hududiy nuqtai nazardan chuqur ilmiy asoslash imkoniyatini beradigan davriy qiyosiy ma'lumotlar yetarlicha mavjud emas.

Natijalar va muhokama. Etnosial jarayonlarda kechayotgan innovasion jarayonlar misolida biz solumning dinamikasi va transformatsiyalashuviga sosiologik jihatdan baho berishimiz mumkin. Chunki har qanday inson omili bir manzildan ikkinchisiga ko'char ekan, uning asosida innovatsiyalar, ya'ni yangiliklar va o'zgarishlar yotadi. XX asrning 30 yillaridan boshlab ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar xususiyatlarini kuzatadigan bo'lsak, ular texnologik va asr so'ngiga kelib axborot-texnik inqiloblar natijasida vujudga kelganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Hozirgi ilmiy-nazariy diskursda inson kapitalining innovatsiyalar bilan bog'liqligi xususida ko'p martalab ilmiy mulohaza yuritilmasin, unda etnosial omillarning ham o'rni yuqoriligini inkor etish qiyin. Dunyo tajribasida “Yapon mo'jizasi”, “Osiyo yo'lbarlari” (Singapur, Malayziya, Janubiy Koreya kabi davlatlar nazarda tutiladi), “Qayta uyg'ongan Xitoy” kabi atamalarining ilmiy talaffuzga kiritilgani, hamda iqtisodiyot, siyosat, ta'lim, ijtimoiy rivojlanish sohalarida foydalanilayotganligi ma'lum.

Har qanday imkoniyat kapital timsolida ehtiyojlar uchun moslashtirilishga yo'naltirilmasin, unda salohiyatga muhtojlik bo'ladi. Shuning uchun aytish mumkinki, inson faoliyati barcha tarkibiy qismlarni o'ziga moslashtiradi. Inson kapitali o'z tarkibida bir qator ijtimoiy-biologik yaxlitlik komponentlarini qamrab oladi va uni sosiumga yo'naltirib boradi. Bular: demografik komponent, sog'liqni saqlash komponenti, ta'lim komponenti, mehnat komponenti, madaniy komponent, fuqarolik komponenti, ma'naviy-ahloqiy komponent, axborotlarga egalik komponenti va shu kabilar. Belgilangan tarkibiy qismlarning har biri kapital sifatida ijtimoiy zarur faoliyat turlariga, funksional imperativlarga mos keladi. Masalan, demografik komponent yangi avlodlar uchun ijtimoiy kapital shakllarini belgilab bersa, sog'liqni saqlash komponenti jamiyatning jismoniy va ruhiy salomtligini tiklashga qaratilgan tadbirlarni tashkillashtiradi, ta'lim kapitali esa bilim va tajribani, mehnat esa moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish va turli xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha faoliyatni namoyon etadi. Va boshqa komponentlarni ham shu tarzda davom ettirish mumkin.

Inson kapitali rivojidadagi muhim omilni demografik tarkibiy qism bilan bog'liq ijtimoiy muhit shaxs va jamoalarning hududiy elementlarini avloddan avlodga o'tadigan vorisiylik tizimi belgilaydi. Demografik asosga qurilgan kapitalning asosiy tuzilmasi hisoblangan sog'liqni saqlash yoki salomatlik komponenti uzoq yillar davomida sifatli tibbiyot yordamida jismoniy va aqliy mehnat qobiliyatini saqlab qolish uchun ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqada shakllangan qadriyatlar tizimiga aylanib bordi. Ayniqsa 2020 yilning mart oyidan boshlab butun dunyo bo'yicha COVID-19 koronavirusi tufayli e'lon qilingan Jahon pandemiyasi sharoitida sog'liq va salomatlik butun insoniyat uchun birinchi raqamli qadriyat sifatida inson kapitalini tashkil etdi. Tadqiqot davomida inson salohiyatini tavsiflashda «faoliyat» yondashuvi va shuning asnosida shaxs hamda jamoalarning ehtiyoj, qobiliyat kabi ijtimoiy rol va funksiyalarni bajarishga tayyorlik tizimi tahlil etiladi. Inson salohiyatining asosini «qobiliyat», qobiliyatning asosini esa «ehtiyot»lar tashkil etar ekan, unda kapital kategoriyasi «ixtiyor etish», ya'ni ehtiyoj va qobiliyatni harakatga keltiruvchi mexanizm sifatida gavdalanadi.

Hozirgi davrda insoniy va jamoaviy xususiyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini izohlashda ularning ehtiyojlar kapitalini asosi bo'lgan «sotib olish» (moddiy jamg'arma,

bilim, ijtimoiy aloqalar, nufuz) funksiyasi, hamda iqtisodiy resurs (manba)lar, ya'ni ko'chmas mulk, aksiya, xususiy biznes kabilarning nimaga yoki qaysi tomonlarga yo'naltirilganligi zamonaviy tendensiyalarni o'zida ifodalagan sosiologik tasniflar bilan tadqiq etilgan.

Ilmiy adabiyotlarda «salohiyat»ga xususiyat sifatida qaralsa, uning mozaik qiyofasini ijtimoiy aks ettirish turli mualliflar tomonidan turlicha shakllantirilgan. Ularning ma'lum bir qismi ilmiy mazmundan batafsil bayon qilingan bo'lsa, ayrim holatlarda mavzuga nisbatan yuzaki yondashuvlar ham o'z ifodasini topgan. Salohiyat kapitalga aylanar ekan, uning tasviriy birligi, qat'iy va chidamli ko'rinishi mozaik qiyofada inson ongida o'z ifodasini topar ekan, uning ijtimoiy modelini ishlab chiqish uchun zaruriy nazariy asos va uslubiy komponentlar zarur bo'ladi.

Xulosa. Tadqiqot davomida quyidagi xulosalarga kelindi:

Inson kapitalini amalga oshirishda mehnat muxim rol o'ynab, u nafaqat bandlik masalalarini, shuningdek ong va tafakkurdagi rivojlanishni, yangicha dunyoqarashlar shakllanishini ham ta'minlaydi;

Inson kapitali – bu nafaqat tovar, balki xizmatlarni ishlab chiqarish qobiliyati hamdir. Inson kapitalining qiymati shunchaki ishlab chiqarish qobiliyati narxiga, undagi qobiliyat miqdoriga ko'paytiriladi;

Inson zahirasi imkoniyatlari – bu ma'lum bir hududda yashovchi, o'ziga xos sifat xususiyatlariga ega bo'lgan turli avlodlarning miqdor ko'rsatkichlari bo'yicha umumiylikni tavsiflovchi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir;

Inson kapitali geografik va ijtimoiy makonda o'z-o'zidan mavjud bo'shliqda o'zgarishlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Zaif imkoniyatlarni kuchaytirish, tezlashtirish qobiliyatini yuzaga keltiradi;

Inson salohiyati hamma vaqt ham barqaror, tekis rivojlanishda bo'lmagan, unga tashqaridan zarur va maqbul bo'lmagan aralashuvlar tufayli o'zgarib turadi.

«Inson kapitali (tadqiqotchi ta'rifi sifatida) – bu sosiumga joriy qilingan turli investisiyalar (xususiy va ijtimoiy jihatdan) tufayli paydo bo'lgan, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy shart-sharoitlar yaratilishiga sabab bo'lgan kishilardagi daromad va foyda afzalliklari, shuningdek, ularning faoliyatlaridagi ehtiyoj va qobiliyatlari namunalari tizimini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28-12-2018. <https://president.uz/uz/lists/view/228>
2. Armstrong M. Praktika upravleniya chelovecheskimi resursami. 10-ye izd. /Per. s angl. pod red. S.K. Mordovina. – SPb.: Piter, 2009. – 848 str.: il. – (Seriya «Klassika MVA»), - S. 60
3. Schulz T. Capital Formation bi Edukathion // Journal of Politikal Economu. – 1960, R. 25., Schulz T. Investment in Human Capital // American Economic Revien.– 1961, March – № 1
4. Bekker G. S. Chelovecheskoye povedeniye: Ekonomicheskii podxod: izbrannyye trudy po ekonomicheskoy teorii. M.: GU VSHE, 2003. 672 str.
5. Bell D. Gryadushyeye postindustrialnoye obshchestvo. Opyt sotsialnogo prognozirovaniya. M.: Academia, 1999. 949 str.
6. Xasanxonova N.I. Inson farovonligi va rivojlanish indeksi, uning jamiyatdagi o'rni // Jurnal: Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansy, 2013., № 11. – B. 39
7. Smit E. Natsionalnaya identichnost. M.: «Osnovy». 1994., Kun T. Struktura nauchnykh revolyusiy. M., 2009., Terner Dj. Struktura sotsiologicheskoy teorii. M.: «Progress», 1985, Smit E. Natsionalnaya identichnost. M.: «Osnovy». 1994., Kun T. Struktura nauchnykh revolyusiy. M., 2009.
8. Fuko M. Arxeologiya znaniya. SPb.: Gumanitarnaya Akademiya: Universitetskaya kniga, 2004., Anderson B. Voobrajayemye soobshchestva. Razmyshleniye ob istokax i rasprostraneniye natsionalizma. M.: Kanon-press.S.; 2001., Fuko M. Arxeologiya znaniya. SPb.: Gumanitarnaya Akademiya: Universitetskaya kniga, 2004.
9. Berger P., Lukman T. Cosialnoye konstruirovaniye realnosti. Traktat po sosiologii znaniya. – M.: «Medium», 1995. – S. 323.
10. Madayeva Sh. Identiklik antropologiyasi – Toshkent: Noshir nashriyoti, 2015. – 175 bet.